



ANTONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11186829>

ARTICLE INFO

Received: 9th April 2024

Accepted: 11th May 2024

Published: 13th May 2024

KEYWORDS

*leksikologiya, antonim, ko'p
ma'noli so'zlar, juft so'zlar*

ABSTRACT

Ushbu maqolada leksikologiyaning bir qismi bo'lgan antonimlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Antonim so'zlarni hosil qilish uchun, albatta ikki so'z bo'lishi kerak ularni qiyoslash orqali aniqlaymiz. O'zbek adabiyotshunosligida ham antonim so'zlar juda ham zarur shu antonim so'zlar orqali biz tazod she'riy san'atini hosil qilamiz.

ARTICLE INFO

Received: 9th April 2024

Accepted: 11th May 2024

Published: 13th May 2024

KEYWORDS

*lexicology, antonym, polysemous
words, pairs of words*

ABSTRACT

In this article, we will have information about antonyms, which are part of lexicology. In order to create antonyms, there must be two words, we determine them by comparing them. Antonyms are also very necessary in Uzbek literary studies, and through these antonyms we create the art of tazad poetry.

Antonim atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, u "qaramaqarshi nom", "zid nom" degan ma'nolarni bildiradi. Demak, antonimlar tillardagi qarama-qarshi ma'noni anglatuvchi so'zlardir. Dunyoda hamma narsa juftlik prinsipiga asoslanganligi ma'lum. Juftlik borligi uchun dunyoda taraqqiyot bor. Lekin har qanday juftlik ham taraqqiyot, rivojlanishning asosi bo'la olmaydi. Faqat bir-birini bir vaqtning o'zida ham inkor qiladigan, ham taqozo qiladigan juftlikka rivojlanish va muvozanat asosi bo'la oladi. Antonim so'zlar tilni leksik yuzasidagi ana shunday juftlikning oddiy namunasidir. Antonimlik xususiyati bu so'zlarning bir-biriga qarshi bo'lishiga aytiladi.¹ Antonimlik xususiyati asosan bir so'z turkumi doirasida bo'ladi.

Sifatlarda *Yaxshi* bilan yursang yetarsan *murodga yomon* bilan yursang qolarsan uyatga

¹ Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish

Otlarda Hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati. Bir kuni ona bechora zor yig'lab, xudoga nola qildi- "Kambag'allik qursin, kambag'allik" *Boylig* bor joyda samimiylik o'rnini sohtalik egallaydi.

Fe'llarda *O'qigan* olim bo'ladi. *Bilimsiz* o'z yo'lini topolmaydi.

Antonimlik hodisasi sifat so'z turkumida juda ham keng tarqalgan boshqa so'z turkumlarida ham uchratishimiz mumkin lekin ularda biroz kamroq bo'ladi. Olmosh bilan sonlar antonimlik xususiyatiga ega emas. Leksik antonimiya ikkita leksema orasida yuz beradi, bu ikki so'z antonimik juftlikni hosil qiladi, ammo antonimik juftlik juft so'z degan gap emas. Qiyos qiling: katta va kichik - antonimik juftlik (undagi har bir so'z-mustaqil leksema), katta-kichik-bitta juft so'z, u umumlashgan bitta ma'noga ega. Demak, katta va kichik zid ma'noli ikkita leksema bo'lganligi uchun, ular bir-biriga nisbatan antonimlardir, katta-kichik juft so'zi esa antonimlar ishtirokida yasalgan bitta leksemdir, binobarin, bitta leksemaning yolg'iz o'zi antonim hisoblanmaydi. Shuningdek, *bor* va *borma* kabi so'z shakllari ham antonimlar deb qaralmaydi, chunki antonim bo'lish uchun, yuqorida aytib o'tilganidek, albatta ikkita so'z (leksema) mavjud bo'lishi, bu ikki so'z o'zaro zid ma'no ifodalashi shart, *bor* va *borma* esa ikkita leksema emas, balki bitta *bor* leksemasining (fe'lning) bo'lishli (*bor*) va bo'lishsiz (*borma*) shakllari, xolos. Demak, bunda ham antonimik juftlik yo'q. Antonimiya va polisemiya hodisalari o'zaro bog'liqdir: ko'p ma'noli leksema o'zining bosh ma'nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma'nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan: achchiq qalampir va shirin olma birikmalarida achchiq va shirin leksemalari o'zlarining bosh ma'nolari orqali antonimik munosabatga kirishgan; achchiq gap va shirin gap birikmalarida esa achchiq va shirin leksemalarining hosila (ko'chma) ma'nolari antonimiyaga asos bo'lgan.²

Affikslar ham antonimlik xususiyatiga ega masalan: *Ilmsiz* bir yashar *ilmli* ming yashar. *Ilmli* odamga ulug'lik hamdam, *Ilmsiz* qozini eshak deb aytma

Iboralar ham antonimlik xususiyatiga ega: Bugun O'zbekistonda qancha chaqaloq dunyoga keldi qanchasi olamda o'tdi. Nargiza yoshligidan yerga ursa ko'kka sapchiydigan qiz edi. Nilufar esa qo'y og'zidan cho'p olmagan.

Maqollar tarkibidagi antonimlarning leksik-semantik, funksional-uslubiy xususiyatlarini o'rganish o'zbek xalqi madaniyati, urf-odat, an'analari, dunyoqarashi, milliy qadriyatlari haqida muhim ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatli. Shuningdek, insoniyat uchun muhim hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, kishilarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni nomlab kelishi bilan tilning aksiologik tomoni bilan uzviy bog'liqdir. Oq rangning oqligini qora rang bo'lgani uchun bilamiz. Biz yaxshi insonning yaxshi ekanini bilishimiz uchun, albatta, yomon insonni uchratgan bo'lishimiz kerak. Har bir tilni o'rganishni istagan odam eng avvalo, o'sha tilning grammatikasini o'rganishi lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005
2. Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish
3. Rahmatullayev Sh O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati Toshkent-1984

² Jamolxonov H Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005

4. Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili toshkent-2006
5. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.

